

## KONSTITUTSIYA – HUQUQ VA BURCHLARIMIZ TAROZISI

***Ikromov Xabibullo Boqievich***

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik  
litsey o'qituvchisiistefodagi podpolkovnik*

***Ibragimov Xasan Ismailovich***

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik  
litsey o'qituvchisiistefodagi podpolkovnik*

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada davlatimizning bosh qomusi bo'lgan konstitutsiyaning huquqiy demokratik davlat qurishimizda jamiyatimiz uchun muhimlik darajasi hamda amaldagi konstitutsiyaning vujudga kelish jarayoni va undagi o'zgarishlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, huquqiy ong, shaxs va jamiyat, burch, qonun ustuvorligi

Ma'lumki, har bir mamlakat Konstitutsiyasi zamonga, dunyodagi globallashuv jarayonlariga, aholining talab va istaklari, ehtiyojlarining o'zgarishlariga harab takomillashtirib boriladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi o'n yilliklarda haysi mamlakatda konstitutsiyaviy o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davlatda qonun ustuvorligi ta'minlangani, jamiyatda jamoat nazorati kuchaygani, ijtimoiy adolat tamoyillari samara bergan.

Shu ma'noda, xalhimiz Yangilangan Konstitutsiyamiz jamiyatimiz hayotining barcha yo'nalishlarini kompleks tartibga solish hamda mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo'lida eng muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilishiga ishonch bildirmohda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish va bilish, aslida faqatgina inson o'zining huquqlarini bilishi va anglashi emas. Har qanday mamlakat Konstitutsiyasi fuqarolarni, ular saylagan deputatlarining huquqiy ongi darajasini ifodalaydi. Shaxsning yoki ijtimoiy guruhning huquqiy ongida umuman huquq to'g'risidagi tasavvurlari, qonuniylik, odil sudlov, adolat singari hodisalar joyolgan. Shu bilan birga huquqiy ong va huquq o'rtasida muayyan tafovutlar ham mavjud. Ular o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligi shunda ham ko'rinadiki, bizga ma'lum bo'lgan adabiyotlarning ko'pchiligida, hator mahola va risolalarda huquqiy ong jamiyatda qabulhilinayotgan huquqiy me'yorlarning in'ikosi sifatida talhin etiladi. Ular shaxsning huquqiy ongi jamiyatdagi huquqiy me'yorlar, qonunlarning ta'siri ostida shakillanishi lozim.

Har bir shaxs mamlakat Konstitutsiyasini to'la anglagan holda, qonunlar va huquqiy me'yorlarda, avvalo mamlakat Konstitutsiyasida shaxs va jamiyatning huquqiy ongi qanchalik to'la aks etirilganligini bilsa Konstitutsion qonunlarimiz shunchalik hayotiy va samarali bo'ladi.

Konstitutsiya va qonunlar demokratik jamiyatda va demokratiyaga intilayotgan mamlakatlarda alohida shaxs tomonidan qabul qilinmaydi. Bunday jamiyatlarda fuqarolar mavjud qonunlar, huquqiy me'yorlar va ularning amal qilishini o'rganib, ularga faol munosabat bildirganlaridagina jamiyat mustaxkam va kuchli bo'ladi.

Inson huquqlarini ta'minlash – O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlarning bosh mezoni Konstitutsiyaga muvofiqharakat qilish inson huquqlari va erkinliklarini adolatli hamda teng asosda himoya qilishni anglatadi. Konstitutsiya odamlar farovonligi va ularning manfaatlarining eng oliy huquqiy kafolati hisoblanib, jamiyat hayotini shakllantirish va davlatni tashkil etishning asosiy vositalaridan biri sanaladi.

Inson huquqlari zamonaviy davlatning konstitutsiyasida markaziy o'rinni egallaydi hamda jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Shu bois, inson huquqlari to'g'risidagi normalar zamonaviy Konstitutsiya loyihasining ajralmas hismi hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, yurtimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarda davlat va jamiyatning barcha vakillari ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Fuqarolar ham o'z siyosiy faolliklarini namoyish etib, Konstitutsiyani takomillashtirish bo'yicha Konstitutsiyaviy komissiyaga 60 mingdan ortiq takliflar bildirishdi. Amaldagi Konstitutsiya xorijiy ilg'or tajriba hamda xalqaro standart va talablarga har tomonlama mos keladi, undagi ba'zi normalarni takomillashtirish, bugungi kun talablariga moslashtirishni zamon taqozo etmoqda. "O'zbekiston Respublikasida barcha bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, tanasining rangi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, nogironligi, tug'ilgan joyi, yashash joyi, yoshi, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy va xizmat mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".

Konstitutsiya Vatan hayotining poydevori bo'lsa, qonunlarining ustunlaridir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, Konstitutsiyaga xilof ishlar, qonunlarning har qanday buzilishi Vatanga qarshi qilingan xurujdir. Konstitutsiyani, qonunlarni himoya qilish esa, Vatanni himoya qilishdir. Konstitutsiya va qonunlarni himoya qilish uchun esa, avvalo ularni mukammal bilish kerak. O'zi bilmagan va tushunmagan narsani qanday himoya qilish mumkin. Shuning uchun ham, hozirgi kunda vatanparvarlikning muhim shartlaridan biriuning Konstitutsiyasi va qonunlarini sinchiklab o'rganish va to'la anglab yetishidir.

Vatanparvarlik tuyg'usi Konstitutsiya vaqonunlarni bilishga, yuksak huquqiy ongga asoslangandagina mustahkam bo'ladi, degan xulosa chiqarish mumkin. O'zini vatanparvar hisoblaydigan fuqaro qonunlarni, Konstitutsiyani bilmasa, ularga amal

qilmasa, tom ma'nodagi vatanparvar bo'la olmaydi. Konstitutsiya vaqonunlarni bilmaydigan fuqaro o'zi bilmagan holda ularni buzishi, demak Vatanga qarshi hattiharakatlar sodir etishi ehtimoli ko'proqdir. Demak, og'izda u vatanparvar bo'lsa ham, aslida o'z Vataniga harshiishlar qiladi. Bunday fuqaroni esa haqiqiy vatanparvar deb emas, Vatanining muxolifi deyish haqiqatga yaqinroqdir.

O'tmishda Vatanni himoya qilish uchun jasurlikning o'zi kifoya qilganbo'lsa, hozirgi kunda u yetarli emas. Endi vatanparvar bo'lish uchun Konstitutsiya va qonunlarni bilish, ularga amal qilish, mazmun va mohiyatini chuhur anglash va himoya qilishhamda bilimdonlik kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo'libo'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabulqilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan.

Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabulqilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga(27 ta yangi modda kiritildi), undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Eng muhimi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida inson sha'ni vaqadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi nazarda tutilmoqda.

Xususan, unda inson huquqva erkinliklarini ta'minlash – davlatning oliy majburiyati etib belgilanmoqda.

Inson va davlat organlari o'rtasidagi yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta'sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi belgilanmoqda.

Ushbu qoidalar inson huquqlari ustuvorligini ta'minlaydi, davlat idoralarining o'z vazifalarini inson huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirishda mas'uliyatini oshiradi hamda insonga me'yorida ortiqhuquqiy ta'sir choralari qo'llanilishining oldini oladi.

Shuningdek, Konstitutsiyada insonning shaxsiy huquqlariva erkinliklari kafolati eng ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirilmoqda.

Ya'ni, shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ushbu muddat ushlab turish qonuniyligi va asosliligi sudda isbotlanmasa, shaxs darhol ozod qilinishi ("Xabeas korpus" instituti) hamda shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi ("Miranda hoidalari"),shuningdek, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni "sukut saqlash" huquqi belgilanmoqda.

Ushbu hoidalar shaxsiy erkinlik daxlsizligini va insonlarni noqonuniy hibsga olishga yo‘l qo‘ymaslikni kafolatlaydi.

Yozishmalar, telefon orqali so‘zlashuvlar, pochta, elektron xabarlar va boshqa xabarlarni sir saqlash huquqi faqat sudning qaroriga asosan cheklanishi mumkinligi belgilanmoqda.

Ayni vaqtda ushbu vakolat prokurorga tegishli bo‘lib, uning sudlarga o‘tkazilishi shaxs daxlsizligi va konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlashda tub burilish bo‘ladi.

Shaxs qarindoshlarining sudlanganligi asosi bilan huquqlari cheklanishi mumkin emasligi hat‘iy belgilanishi inson o‘zining yaqinlari yo‘l qo‘ygan xatolar uchun javob bermasligini ta‘minlaydi.

Shuningdek, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash maqsadida bir qator muhim tamoyillar kiritilmoqda.

Xususan, odil sudlovga erishish darajasini oshirish va sudyalar mustaqilligini ta‘minlashga qaratilgan qoidalar kiritilmohda.

Sudyaning boshqa organlar va shaxslardan xoli bo‘lishini ta‘minlash maqsadida sudyalar muayyan ishlar bo‘yicha hisobdor bo‘lmasligi hat‘iy o‘rnatilmoqda.

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan, Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashhari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlaritomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashdategishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

Konstitutsiyada o‘qituvchilar haqida qo‘shilganmoddada :

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida ham xo‘rlik hiladi. Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi.

Yangi qabulqilingan qonunga ko‘ra senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidantayinlanadigansenatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisharadi. Bu o‘zgarish 2024 yildabo‘ladigan parlament saylovivaqtidakuchgakiradi. Qonunchilikpalatasideputatlarisonini (150 nafar) oshirmaslikka, o‘zgarishsizholdirishga qaror qilindi.

Konstitutsiyagaboshqako‘plabnormalarham qo‘shilgan:

Har kimo‘z shaxsiga doir noto‘g‘ri ma‘lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma‘lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilishhuquqiga ega.

Davlat internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash maqsadida sudlar faoliyatini moliyalashtirish faqat davlat byudjetidan amalga oshirilishi kafolatlovchi yangi modda kiritilmoqda. Konstitutsiyamizning tegishli normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi uning kuchsizlanishiga emas, aksincha, bu muhim huquqiyhujjatning yanada takomillashuviga, xalq manfaatlarini, inson qadrigimmatining kafolatlanishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Muhtaram Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabulhilinganining 27 yilligiga bahishlangan tantanali marosimdagi “Konstitutsiya va honun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuharolik jamiyatining eng muhim mezonidir” nomli ma‘ruzalarida ta‘kidlaganlaridek, “har bir davlat o‘z istihlol va tarahhiyot yo‘lini tanlar ekan, xalh farovonligini ta‘minlashga xizmat hiladigan eng muhim mahsad va vazifalarini o‘zining Konstitutsiyasi – Asosiy honunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o‘z xalhining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlarigahamohang Konstitutsiyaga ega bo‘lgan mamlakato‘zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og‘ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo‘lish, ta‘lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so‘z hamda e‘tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi”.

zoq asrlar davomida bashariyat ming-minglab qoidalar va nizomlardan jamiyat uchun asosiyalarini va o‘ta muhimlarini tanlab oldi. Aynan ana shutanlabolingan qoidalar Konstitutsiyamiz yaratilishigapoydevor bo‘ldi. Konstitutsiyadabayon etilgan tushunchalar shu qadar ahamiyatliki, hech bir odam ularsizyashayolmaydi, negaki insonning har kuni duchkeladigan muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyati ko‘pinchamamlakat asosiy qonunigakiritilgan qoidalar va moddalargabog‘liqdir.

Bosh qomusimiz muqaddimasida inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqlik tantanali ravishda e‘lon qilinib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas‘uliyat anglangan holda, o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat namoyon etilib, xalqaro huquqning umume‘tirof qilingan qoidalari ustunligi tan olingan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishini ta‘minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish ko‘zlanib, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta‘minlash maqsadida qabulhilingan.

Shu maqsadlarni ko'zlab qabulqilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bugungi kunda mamlakatimizda suveren demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlash, iqtisodiyotimiz rivoji va turmushimiz farovonligini yuksaltirishning asosiy huquqiy kafolati bo'lib kelmoqda.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı demokratik islohotlar, ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ro'y berayotgan barcha o'zgarish va yangilanishlar asosi, milliy qonunchiligimiz poydevori bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jahon hamjamiyatida zamonaviy demokratik qonunchilik namunasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda davlatni jamiyatga, xalqqa xizmat qiluvchi institutga aylantirish, uning faoliyatini qonunlarga tayanib qurishga qattiq kirishilgan, desak xato bo'lmaydi. Fuqaro – jamiyat – davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona va adolatli huquqiyechimi Konstitutsiyadir.

Qolaversa, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy salohiyatini va mudofaa qudratini yuksaltirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, davlatimiz sarhadlari daxlsizligini ta'minlash, jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlikni, millatlararo do'stlik va totuvlikni asrash, Asosiy qonunimizning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini keng targ'ib etishda barcha soha vakillari hamqadam bo'lishimiz kerak. Yosh avlod qalbida ona Vatanga mehr va sadoqat tuyg'ularini jo'sh urdirish, Konstitutsiyamiz va boshqa qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash asosiy burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Konstitutsiya, huquqiy ongimiz mezoni. <https://qashqadaryo.adliya.uz/uz/news/detail.phpID=35790>
2. Rustam Atovulloev. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliymarkazi bosh yuriskonsulti
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – islohotlarning muhim Poydevori [https://constitution.uz/uz/pages/islohat\\_muhim](https://constitution.uz/uz/pages/islohat_muhim)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)